

MAMLAKATIMIZDA TA'LIM SOHALARINI RIVOJLANTIRISHDA “UG - DASTURIY TIZIMI”NI QO'LLASH SAMARADORLIGI

Jasur Rozmedovich Masharipov

Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

masharipovj635@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “XXI asr axborot texnologiyalari asri” – degani kabi butun jahon taraqqiyoti tobora axborot – texnologiyalari bilan tez sur’atda rivojlanib borayotganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari, bugungi tahlikali va dolzarb kunda, ya’ni XXI asr fan va yuqori texnologiyalar rivojlanishi, bugungi kunda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev yuritayotgan islohotlari va ular tomonidan 2007-yilda qabul qilingan qarorlari, “UG- dasturiy tizimi”, zamonaviy innovatsion texnologiyalar-elektron doskalar, turniketlar, ilovalar orqali to’lovlar haqida so’z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, jahon taraqqiyoti, UG- dasturiy tizimi, sensor ilovasi, talaba va ustozlarni o'zlashtirish, ustoz va talabalar, mutassadi xodimlar, ta'lim muassasa rahbari, gadjet.

IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION IN OUR COUNTRY EFFICIENCY OF USING "UG - SOFTWARE SYSTEM"

Jasur Rozmedovich Masharipov

Student of Chirchik State Pedagogical Institute

masharipovj635@gmail.com

ABSTRACT

As the first President Islam Karimov said in the article “XXI century is the century of information technologies”, the world is rapidly developing together with information technologies, decisions of the President of the Republic of Uzbekistan on measures to integrate with the IT industry. ., today is a dangerous and topical day - the development of science and high technologies in the XXI century, the reforms carried

out by President Shavkat Mirziyoyev and their solutions in 2007, the "UG-software complex", modern innovative technologies - electronic scoreboards, turnstiles, they talk about payments through applications.

Keywords: Information technology, world development, UG-software package, sensor application, development of students and teachers, teachers and students, officials, head of educational institution, gadget.

KIRISH

XXI asr axborot texnologiyalari asrisifatida kirib keldi. Axborot texnologiyalari allaqachon hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bo'lgan. Bolalarimizni iqtidorli, zamonaviy bilimlar egasi qilib tarbiyalash uchun kompyuter savodxonligining ahamiyati yuqori.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "XXI asr axborot texnologiyalari asri" – degani kabi butun jahon taraqqiyoti tobora axborot – texnologiyalari bilan tez sur'atda rivojlanib bormoqda. Xususan biz kabi yoshlarni zamon talabiga javob beruvchi mutaxassislar qilib tayyorlashda alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti davrida "Informatika va axborot texnologiyalari" mutaxassisligi kadrlariga katta talab mavjud. Ma'lumki, kompyuter texnologiyalarining rivojlanishiga eng birinchi turtki juda murakkab hisoblashlarni tezda bajarishga tug'ilgan katta ehtiyojdir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi **ichki** va **tashqi** omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- Ichki omillar.
- Tashqi omillar.

Ichki omillar- bu axborotni poydo bo'lish turlari, xosalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, uni jamlash uzatish, saqlash va h.k.

Tashqi omillar – bu axborot texnologiyasining texnika – uskunaviy vositalari orqali axborot bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Axborot texnologiyalari jamiyat axborot resurslaridan oqilona foydalanishning yeng muhim omillaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

1 – bosqich. XIX asrning 2 – yarmigacha davom yetgan. Bu bosqichda «qo'llik» axborot texnologiyalari taraqqiy yetgan. Uning vositasi pero,siyoxdon, kitob.

Kommunikatsiya ya'ni aloqa odamdan – odamga yoki pochta orqali xat vositasida amalga oshirilgan.

2 - bosqich. XIX asirning oxiri, unda «mexanik» texnologiya rivoj topgan. Uning asosiy vositasi yozuv mashinkasi, arifmometr kabilardan iborat.

3 – bosqich. XX asirning boshlariga mansub bo'lib, «yelektromexanik» texnologiyalar bilan farq qiladi. Uning asosiy vositasi sifatida telegraf va telefonlardan foydalanilgan. Bu bosqichda axborot texnologiyasining maqsadi ham o'zgardi. Unda asosiy urg'u axborotni tasvirlash shaklidan uning mazmunini shakllantirishga ko'chiriladi.

4 – bosqich. XX asir o'rtalariga to'g'ri kelib, «yelektron» texnologiyalar qo'llanilishi bilan belgilanadi. Bu texnologiyaning asosiy vositasi YEXM lar va ularning asosida tashkil yetiladigan avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari va axborot izlash tizimlaridir.

5 – bosqich. XX asirning oxiriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda kompyuter texnologiyalari taraqqiy yetdi. Ularning asosiy vositasi turli maqsadlarga mo'ljallangan turli dasturiy vositalarga ega bo'lgan shaxsiy kompyuterlardir. Bu bosqichda kundalik turmush, madaniyat va boshqa sohalarga mo'ljallangan texnik vositalarning o'zgarishi ro'y berdi. Lokal va global kompyuter tarmoqlari ishlatila boshlandi.

O'zbekistonda axborot texnologiyalari mutaxassisleri Toshkent Axborot Texnologiyalari Universitetida tayyorlanadilar [2,3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

II jahon urushi oxirlaridan boshlab hisoblash texnikalari rivojlantirilib borildi. Hozirgi paytda esa juda tez hisoblovchi shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi hisoblash sohasida sezilarli yangiliklarni ta'minlamoqda. Jumladan, katta qiziqish bilan o'rganilayotgan kompyuter texnologiyalari yildan – yilga rivojlanib bormoqda. Bularga misol qilib, IOS, Windows, Android platformalarida ishlovchi dasturlar, multimedialar, axborot vositalari va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4851-son qaroridan kelib chiqqan holda quyidagi maqola ishlab chiqildi.

Hozirgi ta'lim tizimi o'quvchi va talabalarni darsdagi ishtiroki va olgan baholari an'anaviy usulda ya'ni o'quv jurnallarida qayd etilib boriladi. Joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar ham xuddi shu usulda amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchi tomonidan diqqatli bo'lishni va alohida vaqt ajratishni talab etadi. Bundan tashqari talim muassasalarini qiynab kelayotgan yanabir muhim masala bu – talim oluvchilarning belgilangan vaqtlarda belgilangan mashg'ulotlarda ekanligini nazorat qilish masalasidir. Buning uchun ba'zan malum xodimlarni jalb etgan holda nazorat- tekshiruv ishlarini olib borishni talab etadi [4,5].

Yuqoridagi muammolarni hal etishning bir necha ko'rinishdagi usullari mavjud, bularga turniket, RF ID skaner dasturi yoki video kuzatuv dasturlarini misol qilishimiz mumkin. Ushbu dasturlar bir qancha qulayliklarga ega, lekin biz keltirgan muammoni to'liq hal qilmaydi.

Mazkur muammoni to'liq hal qila oladigan innovatsion tizim ya'ni **“UG-dasturiy tizimi”** ni etiboringizga havola etamiz.

“UG- dasturiy tizimi” bu – talim muassasasi o'quvchi va talabalari haqida barcha ma'lumotlarni o'zida jamlovchi, ularning muassasa hududiga kirib chiqishi, mashg'ulotlardagi ishtiroki va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini, fanlar bo'yicha qarzdorlik holatlarini o'zida aks ettiruvchi va nazorat qiluvchi electron dasturiy tizim.

Ushbu **“UG- dasturiy tizimi”** vazifasiga kelsak, jurnalimiz maxsus dastur asosida ishga tushib sensor jurnal vazifasini o'taydi. Uning o'z xavfsizlilik tizimi bor bo'lib, ichki inspeksiyasi hamda kompyuter nazoratchi dispetcherlar shuningdek rektor va direktorlar nazoratlari orqali faoliyat yuritiladi va ularning kompyuter kuzatuvlariga ulangan bo'ladi. Journallar nazorat punktiga ham ulangan bo'lib, har bir davomat uchun o'quvchi yoki talabaning yuzi IP kamera orqali rasmga olinadi va ularning turniketi yordamida davomati jurnalga borib tushadi. Mazkur talabaning kelganligini bilish uchun jurnal ro'yxatda familiyasi oldida yashil rang yonadi, aksincha bo'lsa qizil yonadi. Ayrim sabablarga ko'ra o'quvchilar kech qolishi mumkin, bunday holatlar uchun ham qizil rang yonib turaveradi toki ular hmasg'ulotga kelmaguncha. Dars jarayoniga kelsak , mazkur jurnal sinf rahbari zimmasida bo'ladi. Har bir fanning o'qituvchilari ushbu jurnalga kirish uchun o'zlarining qo'ygan parollari orqali kirib dars jarayonini olib boradilar hamda asosiy nazoratchilarga dars jarayoni o'tayotganligini video kamera yoki skrinshot yordamida hisobot beradilar. Jurnalimizning yillik faoliyati reyting baholari qo'yilgandan so'ng tugaydi va maxsus flesh xotiralar orqali yuklatilib ma'lumotlar omboriga joylashtiriladi [6,7,8].

Jurnal-planshet ko'rinishida bo'ladi va uni siz sensor ilovasini kiritib Android, IOS yoki Windows kabi dasturlar orqali dasturlanadi. Elektron jurnalimiz bir dastur asosida ish olib boradi ya'ni (excel, jadval va hk.) jurnalimiz ning tuzilishi aslida murakkab bo'lsa ham foydalanish juda qulay(siz uni xuddi sensor telefon ishlatayotgandek, ishlatasiz). Jurnalimizni yanada optimallashtirish uchun qator funksiyalar kiritiladi. Masalan: tarmoq uchun cheksiz internet, ko'p vaqt oralig'ida ishlashi uchun katta quvvat :quvvatlovchi moslama,(quvvat olishning antiqa usuli-quyosh nurlari yordamida),Web kameralar himoyalovchi tizimlar: parollar, antivirus dasturi va hk.

Yana ta'kidlab o'tish joizki, biz talabdan kelib chiqqan holda ushbu moslamaga qo'shimcha yangiliklar va takliflarni kiritishimiz mumkin:

Ta'lim muassasa rahbari va mutassadi xodimlargagina foydalanish ruxsat (dopusk)i bo'ladi;

Talaba va ustozlarni o'zlashtirish va dars o'tish sifatini oshiradi;

Vaqtni tejaydi;

Ustoz va talabalar o'rtasida shaffoflikni ta'minlaydi va korrupsiyaga yo'l qo'ymaydi, sababi rahbariyat nazoratida;

Qayta tekshirish sahifasi bo'ladi;

Gadget dekanatda va faqat guruh faoli(sinf sardor) javobgar bo'ladi;

Onlayn ravishda butun institut doirasida (server) ishlaydi;

Oxirida hisobot SEND tugmasi orqali boradi.

“UG- dasturiy tizimi” ning qulayliklari va maqsad vazifalari quyidagilardan iborat:

-ta'lim jarayonining sifatini oshiradi;

-talaba yoki o'quvchilarning davomatini, hattoki o'qituvchilarning ham davomatini tekshiradi;

-talaba yoki o'quvchilarning o'zlashtirishini, shuningdek dars jarayonini nazorat qiladi;

-korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ta'lim jarayonidagi tartibsizliklarning oldini oladi [9].

XULOSA VA TAVSIYALAR

Shuni ta'kidlash joizki, yurtimizning barcha sohalarda innovatsion ijtimoiy rivojlanib , uning ravnaq topishi uchun har bir inson o'zi harakat qilib o'z hissasini

qo'shishi lozim. Ana shunda bizning taraqqiy o'sib borish darajamiz yuqori cho'qillarni zabt etadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek , har bir sohada, ayniqsa ta'lim sohasida yuksalish va innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish tobora yuksalib borayotgan bir qatorda yuksak marralarni ham qo'lga kiritmoqdamiz. Misol qilib aytsak: **Zamonaviy innovatsion texnologiyalar-elektron doskalar, turniketlar, ilovalar orqali to'lovlar** shuningdek bugungi ko'rgan elektron jurnalimiz ham ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning samarasi oshishda muhim ahamiyat kasb etadi va go'zal bo'ston bo'lmish- Ona diyorimizga uzoq muddat xizmat qilib beradi degan umitdaman!

REFERENCES

1. Aripov M. M., Imomov T., Irmuhamedova R.M., Sagatov M.V., Haydarov A.T., Yakubov A.T. Informatika. Axborot texnologiyalari, I qism. Toshkent 2003 y.
2. Aripov M. M., Imomov T., Irmuhamedova R.M., Sagatov M.V., Haydarov A.T., Yakubov A.T. Informatika. Axborot texnologiyalari, II qism. Toshkent 2003 y.
3. Aripov M. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. Toshkent 2001
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarori.
5. T.X.Xolmatov, N.I. Taylaqov, U.A. Nazarov. Informatika va hisoblash texnikasi. Toshkent 2001 y.
6. S.Ro'zimov. Kompyuter savodxonligi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2014 y.
7. Интернет ва ундан фойдаланиш асослари. А.Р.Марахимов, И.Рахмонкулова Т.: 2001, 175 б.
8. Интернет технологиялари. М.Х.Мадумарова Т.: 2016, 45 б.
9. S.S. Yusubjonov, A.J. Parpiyeva, B.A.Mekambayev «MICROSOFT OFFICE dasturlari: WORD, EXCEL, POWER POINT», kitob, Chirchiq shahri - 2015 yil.
10. <https://www.google.com//AbdullaAvloniyninghikmatliso'zlari> ;
11. <https://www.google.com//kadrlartayyorlashmilliydasturi> , www.lex.uz;
12. <https://www.google.com//ta'limto'g'risidagiqonun> , www.lex.uz
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_tehnologiyalari